

Xudayberganova R.T.
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti,
“Geografiya” kafedrası dotsenti, Ph.D.
O‘zbekiston

**QUYI AMUDARYO IQTISODIY RAYONI SANOAT TARMOQLARI
RIVOJLANISHI VA JOYLANISHINING TABIIY-EKOLOGIK OMILLARI**

Annotatsiya. Maqolada Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonining sanoat rivojlanish istiqbollari yoritilgan bo‘lib, bunda asosiy omil sifatida tabiiy ekologik jihatlar ko‘rib chiqilgan. Mavjud ishlab chiqarish kuchlarining detsentratsiyasi ahamiyatliligi ko‘rsatilgan. Ushbu iqtisodiy rayonning sanoat tarmoqlarining yangi turi shakllanish imkoniyatlari tahlili keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni, tabiiy omil, tabiiy resurs, tabiiy sharoit, sanoat.

ХудайбергANOVA P.T.
Ургенчский государственный университет имени Абу Райхана Беруни,
Доцент кафедры “География“, Ph.D.
**Узбекистан ПРИРОДНО-ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ И
РАЗМЕЩЕНИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ ОТРАСЛЕЙ
НИЖНЕАМУДАРЬИНСКОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЙОНА**

Аннотация. В статье рассматриваются перспективы развития промышленности Нижнеамударьинского экономического района, в котором важнейшим фактором являются природно-экологические факторы. Показана важность децентрализации существующих производительных сил. Представлен анализ возможностей формирования нового типа отраслей промышленности этого экономического района.

Ключевые слова: Нижнеамударьинский экономический район, природный фактор, природные ресурсы, природные условия, промышленность.

Khudayberganova R.T.
Urgench State University named after Abu Rayhan Biruni,
Associate Professor of the Department of Geography, Ph.D.

**Uzbekistan NATURAL AND ECOLOGICAL FACTORS OF THE
DEVELOPMENT AND LOCATION OF INDUSTRIAL INDUSTRIES OF
THE LOWER AMUDARYA ECONOMIC REGION**

Annotation. The article discusses the prospects for industrial development of the Lower Amudarya economic region, considering natural and ecological aspects as the main factor. The importance of decentralization of existing productive forces is shown. An analysis of the possibilities for the formation of a new type of industrial sector in this economic region is presented.

Key words: Lower Amudarya economic region, natural factor, natural resource, natural conditions, industry.

Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatini o‘z ichiga oladi. Mintaqa O‘zbekistonning shimoli – g‘arbiy chekkasida joylashgan. U shimol va g‘arb tomondan Qozog‘iston, janubda Turkmaniston, sharqda respublikaning Navoiy va Buxoro viloyatlari bilan chegaradosh. Iqtisodiy rayon maydoni 172,6 ming kv.km. bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi hududining 38,4 foizini egallaydi.

Iqtisodiy rayonlar ichida hududining kattaligi bo‘yicha oldingi o‘rinda turadi, ichki tuzilishi jihatidan turli kattalikdagi ma‘muriy birliklardan iborat bo‘lib, Qoraqalpog‘iston Respublikasi maydoni 166,6 ming kv. km., Xorazm viloyatining maydoni 6,05 ming kv. km. ni tashkil etadi.

Ta’kidlanganidek, sanoatning rivojlanishi va uning hududiy tashkil etilishi qator omillarga bog‘liq. Avvalambor, buning uchun tabiiy zaxiralar, ya’ni mineral, yer-suv boyliklari talab qilinadi. Shu bilan birga, iqtisodiy-ijtimoiy, ijtimoiy shart-sharoitning ahamiyati ham kattadir. Chunonchi, aholi va mehnat resurslari miqdor va sifat ko‘rsatkichlari, aholi manzilgohlari to‘ri zichligi, infratuzilma va transportning rivojlanganligi sanoat korxonalarini joylashinishi va taraqqiyotiga ta’sir ko‘rsatadi. Bu va shunga o‘xshash shart – sharoitlar mamlakatning turli hududlarida bir xil emas. Binobarin, sanoat ishlab chiqarishini geografik tadqiq etishda aynan ana shu jihatlarga ustuvor ahamiyat bermoq zarur [8; 22-b.].

Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni sanoat tarmoqlari rivojlanishi va joylanishiga suv resurslarining taqchilligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasida qazilma resurslarning mavjudligi, Orol dengizi qurishi oqibatida yuzaga kelgan ekologik tanglik, demografik holati, xususan Qoraqalpog‘istonda aholining tarqoq joylashuvi, Xorazm viloyatida aholi joylashuvida hududiy mujassamlashuvning

yuqori ekanligi va arzon hamda ma'lum malakaga ega mehnat resurslari kabi omillar ta'sir ko'rsatadi (1-jadvalga qarang).

Quyi Amudaryo hududi geologiyasi uncha murakkab tuzilishga ega emas. Shunga ko'ra uning qazilma boyliklari ham unchalik turlanmagan. Rayonda yirik sanoat usulida o'zlashtirish mumkin bo'lgan gaz, tuz, titan-magnetit rudalar, qurilish xom ashyo konlari mavjud. Rayon hududida Ustyurt, Buxoro-Xiva gaz-neft, Sultonvays ma'danli va qurilish materiallari, Quyi Amudaryo-Ustyurt tog'-kimyo minerallari havzalari joylashgan. Sultonvays hududida o'nlab turdagi ma'dan va qurilish materiallari konlari topilgani bois uni ko'p hollarda "Kichik Ural" deb ham atashadi [2, 4, 5, 6].

1-jadval

Sanoat tarmoqlari joylashuviga ta'sir etuvchi mahalliy omillar

Sanoat tarmoqlari	Xom ashyo	Suv	Yoqilg'i energetika	Transport	Mehnat resurslari	Iste'mol	Texnologik	Eko-logik
Elektr energetika	++	++	++	+	+	++	++	++
Yoqilg'i sanoati	+++	+	+	++	+	++	+	++
Qora metallurgiya	++	+	++	+	+	+	++	++
Rangli metallurgiya	+++	++	+	+	+	+	++	++
Kimyo va neft kimyosi	++	+	++	+	++	++	++	+++
Mashinasozlik va metalni qayta ishlash	++	+	+	++	++	++	+++	+
Qurilish material-lari sanoati	++	+	++	+	+	++	+	+
O'rmon, yog'och-ni qayta ishlash, sellyuloza-qog'oz	+++	++	+	+	+	++	+	+
Yengil sanoat	+	++	+	+	++	+++	++	+
Oziq-ovqat sanoati	++	+	+	+	+	+++	++	+

Izoh 3.: Shartli belgilar: ta'sir etish darajasiga ko'ra, a) +++ "hal qiluvchi ta'sirga ega"; b) ++ kuchli ta'sirga ega; v) + "ta'sir ko'rsatadi".

Iqtisodiy rayon turli xil qazilma boyliklarga ega, lekin mintaqaning ichki qismlarida mineral xom ashyo resurslari bir xil taqsimlanmagan. Bu jihatdan Qoraqalpog'iston Xorazm viloyatidan qazilma boyliklari: tog'-kon kimyo xom ashyosi hamda gaz va gaz-kondensat konlariga boyligi bilan ajralib turadi. Xorazm viloyatida shag'al, qurilish qumi sanoat usulida ishlatilmoqda, Tuproqqal'a massivida gaz konlarini qidirish va ishga solish ishlari olib borilmoqda.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida mavjud mineral resurslarni xalq xo‘jaligidagi ahamiyati va foydalanish imkoniyatiga ko‘ra quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

- Yoqilg‘i-energetika xom ashyo resurslari;
- Metallurgiya xom ashyo resurslari;
- Kimyoviy xom ashyo resurslari;
- Qurilish materiallari resurslari;
- Oziq-ovqat uchun foydalaniladigan mineral resurslar [10; 33-b.].

Qoraqalpog‘iston hududidagi mavjud neft va tabiiy gaz zaxiralari asosan Ustyurt va Orol dengizining qurigan qismida joylashgan. Ustyurt platosi O‘zbekistondagi 5 ta yirik neft va tabiiy gaz regionlaridan biri hisoblanadi. Qoraqalpog‘istonda Shoxpaxta, Quvonish, Shimoliy Orol, Surgil, Berdax, Uchsoy, Urga, Shimoliy Jiltirbas, Shege, G‘arbiy Borsakelmas, Qorachaloq, Ko‘kchaloq, Oqchaloq kabi tabiiy gaz konlari ochilgan. Mustaqillik yillarida mintaqada keng miqyosli geologik – tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Hozirgi kunda respublikadagi yoqilg‘i resurslardan unumli foydalanish maqsadida hududga chet el investitsiyalari jalb qilingan [3]. Yoqilg‘i-energetika majmuyida O‘zbekiston va Rossiyaning Lukoyl, Itera, Gazprom hamda Buyuk Britaniyaning Trinit – Enerji, Koreya Respublikasining Korgaz kompaniyalari o‘rtasida aloqalar izchil yo‘lga qo‘yilgan.

Ustyurt va Orol dengizining qurigan qismidagi konlardan eng yirigi Surgil koni hisoblanadi. Surgil koni gaz zaxirasi 120 mlrd. kub metrni tashkil etadi. 2016-yilning may oyida O‘zbekiston bilan Koreyaning Korgaz kompaniyasi bilan hamkorlikda Ustyurt gaz – kimyo majmuasi ishga tushirildi. Loyihaning umumiy qiymati 4 mlrd. AQSH dollarni tashkil etib, 4,5 mlrd. kub metr tabiiy gazni qayta ishlash hisobidan 3,7 mlrd. kub metr gaz, 387 ming tonna polietilen, 83 ming tonna polipropilen, 102 ming tonna piroliz distillyati va boshqa qimmatbaho mahsulotlar ishlab chiqarish imkonini beradi. Ushbu majmua Surgil gaz koni negizida tashkil etildi. Ustyurt gaz – kimyo majmuasi 130 gektardan ortiq maydonda joylashgan.

Hozirda Ustyurt gaz – kimyo majmuasida kuniga 1,5 – 2 ming tonna granulalar ishlab chiqarilmoqda. Polietilen va polipropilen mahsulotlari Sharqiy Osiyo, MDH va Yevropa davlatlariga eksport qilinmoqda.

Ustyurtda tashkil etilgan majmua faoliyat ko'rsatayotgan Sho'rtan gaz – kimyo majmuasidan keyingi respublikamizda ikkinchi korxona hisoblanadi. Qoraqalpog'istonning Ustyurt hamda Orol dengizining qurigan qismida tabiiy gaz bilan birgalikda neft konlari ham aniqlangan. Istiqbolda yoqilg'i turlarining yirik konlari topilishi bashorat qilinmoqda. Hozirda mintaqaga respublika geologik - tadqiqotlar uchun ajratilgan investitsiyaning asosiy qismi sarflanmoqda. Rejalashtirilgan loyihadagi konlar to'liq quvvat bilan ishga tushirilsa, kelajakda Qoraqalpog'istonda ishlab chiqarish kuchlarining o'sish sur'atlarini oshiradi. Bu esa hududning ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Xorazm viloyati o'ng qirg'oq voha qismida qurilishda, g'isht ishlab chiqarishda ishlatiladigan gil, qum, shag'al uchraydi. Ushbu foydali qazilma konlarining ko'pchiligi 2019-2021-yillarda respublikada qurilish sanoatini rivojlantirish dasturi doirasida o'zlashtirish rejasiga kiritilgan. Viloyatning chap qirg'oq qismi Buxoro-Xiva neft-gaz mintaqasi doirasida gaz qidiruv razvedka ishlari olib borilmoqda.

Iqtisodiy rayon sanoatining yanada samarali rivojlanishini ta'minlash maqsadida foydalanishga jalb etilmagan Qoraqalpog'iston Respublikasidagi Qizketgan, Jamansoy, Darbozatov, Qaxralisoy, Ko'lli, Janubiy-3 va Xorazm viloyatidagi Qoraqum, Bazirgon konlarini ishga tushirish orqali qurilish materiallari va kimyo sanoatiga ixtisoslashgan sanoat korxonalarini tashkil etish lozim. Bunda iqtisodiy rayondagi ishlab chiqarishga jalb etilmagan foydali qazilma konlarining imkoniyatlaridan foydalanish asosida qurilish materiallari va kimyo sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarish salmog'ini oshirishga erishish mumkin.

Quyi Amudaryo mintaqasi tog'-kon qurilish, tog'-kimyo va gaz foydali qazilmalariga boy, ammo ularning aksari hududi katta va tabiiy ravishda geologik jihatdan nisbatan turlangan Qoraqalpog'iston Respublikasi hissasiga to'g'ri keladi. Istiqbolda mineral resurslardan foydalanish asosida tog'-kimyo, neft-gaz-kimyo

kabi energiya ishlab chiqarish sikllarini yaratish uchun shart-sharoitlar bor. Ularni shakllantirish ayni vaqtda ustuvor tarmoqlar hamda o'sish nuqta va markazlarini belgilashga yordam beradi.

Tahlillardan ko'rinib turibdiki, hududda sanoatni rivojlantirish uchun mineral xom ashyo salohiyati katta. Ularni o'zlashtirishda hozirda iqtisodiy rayon doirasida kooperatsiya kuchaymoqda.

Mintaqa O'rta Osiyoning arid zonasida joylashgan bo'lib, suv resurslariga boy emas. Uning yagona suv manbai Amudaryo hisoblanadi. Amudaryo suvidan qishloq xo'jaligida samarali foydalanish maqsadida Tuyamo'yin suv ombori qurilgan, o'nlab katta-kichik kanallar murakkab gidrotexnik inshootlar orqali boshqariladi. Iqtisodiy rayon hududida Amudaryo o'zani nishabligi 50 metrga yaqin farq qilsada qiyaligi keskin farq qiladigan joylar bo'lmagani bois gidroenergiya salohiyati past. Shu bois faqat Tuyamo'yin suv ombori to'g'oni hududida quvvati 70 ming kVt.s bo'lgan elektr stansiyasi qurilgan. Ushbu holat kelajakda hududda yashil energiyaning boshqa turlari, xususan, quyosh va shamol energiyasidan foydalanishga katta e'tibor qaratish qishloq xo'jaligi va sanoatda suv tejamkor texnologiyalardan foydalanishni talab etadi.

Quyi Amudaryo mintaqasining tabiiy sharoiti sanoat tarmoqlarini rivojlantirish uchun qulayliklarga ega. Ammo, yuqorida ko'rib o'tganimizdek, Quyi Amudaryo mintaqasida respublika sanoat mahsulotlarining atigi 6,7 foizi ishlab chiqariladi, xolos. Vaholanki, mintaqada mamlakat aholisining 10,9 foizi istiqomat qiladi. Bu esa hududning resurslaridan to'laroq foydalanish, sohaga chet el investitsiyalarini jalb etish orqali aholi bandligini oshirishni talab etadi. Bu esa o'z navbatida mintaqa sanoati ixtisoslashuvi, hududiy mujassamlashuvi, mavjud resurslardan foydalanish darajasini tahlil etish va istiqbolda rivojlanish yo'nalishlarini belgilashni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qurbonov Sh.B., Fedorko V.N. O'zbekiston geografiyasi (II qism. O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi). – T.: Yangi Chirchiq prints, 2024. – 384 b.

2. Бектемиров К.К. Устойчивое развитие регионов экологического кризиса: методология и инструментарий применения в Приаралье. – Т.: Фан, 2006. – 160 с.
3. Вахабов А.В., Хажибакиев Ш.Х., Муминов Н.Г. Хорижий инвестициялар. – Т.: Молия, 2010. – 243 б.
4. Ишчанов М. Экономико – географические проблемы развития орошаемого земледелия в низовьях Амударьи. – Т.: Фан, 1981. – 101 с.
5. Научные основы комплексного развития производительных сил Нижнеамударьинского территориально – производственного комплекса (КК АССР и Хорезмская область). – Часть 1. – Т.: Фан, 1978. – 285 с.
6. Научные основы комплексного развития производительных сил Нижнеамударьинского территориально – производственного комплекса (КК АССР и Хорезмская область). – Часть 2. – Т.: Фан, 1978. – 315 с.
7. Солиев А., Қаршибоева Л. Иқтисодий географиянинг назарий ва амалий масалалари. – Т.: Зиё, 1999. – 181 б.
8. Солиев А., Қаршибоева Л. Саноат ишлаб чиқаришнинг минтақавий муаммолари (Сирдарё вилояти мисолида). – Гулистон: 2001. – 98 б.
9. Умаров Е.Қ. Қарақалпақстанда санаат комплексин раўажландырыўдын баслы бағдарлары. – Нукус: Қарақалпақстан, 2011. – 49 б.
10. Умаров Е.Қ. Ишлаб чиқариш кучларини ривожлантиришнинг худудий муаммолари. – Нукус: Қарақалпоғистон, 2007. – 164 б.
11. Қурбонниёзов Р. Хоразм географияси. – Урганч: Хоразм, 1997. – 115 б.